


**SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**  
(2020-yil yanvar)


2020-yilning yanvar oyida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 995,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga oʼsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 131,2 mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati 129,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 863,8 mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati 104,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 69,5 mlrd. soʻm (2019-yilning shu davriga nisbatan 93,3 %) ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmini hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Samarcand shahri (318,4 mlrd. soʻm), Urgut (112,9 mlrd. soʻm) va Pastdargʼom (70,6 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashganligidir.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO  
TOVAR AYLANMASI HAJMI**  
(2020-yil yanvar)

(mlrd. so‘m)




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (mlrd. so‘m, foiz)**  
(2020-yil yanvar)

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>995,0</b>	<b>107,4</b>	<b>131,2</b>	<b>129,4</b>	<b>863,8</b>	<b>104,7</b>
Samarqand shahri	318,4	110,2	97,5	136,8	220,9	101,5
Kattaqo'rg'on shahri	53,7	106,6	0,1	66,0	53,6	106,8
<i>tumanlar:</i>						
Bulung'ur	54,2	105,4	0,4	4,0 m.	53,9	104,9
Jomboy	28,5	103,0	0,4	2,8 m.	28,1	102,0
Ishtixon	41,5	105,8	1,2	5,4 m.	40,2	103,3
Kattaqo'rg'on	39,4	106,2	0,7	6,4 m.	38,7	104,7
Narpay	33,0	106,5	0,5	4,6 m.	32,5	105,2

Hududlar nomi	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Nurobod	35,2	106,5	0,2	4,2 m.	34,9	105,9
Oqdaryo	21,5	103,4	0,5	199,9	21,0	102,2
Payariq	37,2	105,4	0,7	2,5 m.	36,5	104,3
Pastdarg'om	70,6	109,8	3,6	100,3	67,0	110,3
Paxtachi	31,9	107,0	0,4	2,7 m.	31,5	106,1
Samarqand	59,6	110,1	22,2	98,7	37,4	118,2
Tayloq	27,9	103,8	0,4	5,9 m.	27,5	102,5
Urgut	112,9	104,1	2,2	93,5	110,7	104,3
Qo'shrabot	29,5	105,3	0,2	176,2	29,4	105,1

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida va Samarqand, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod va Narpay tumanlarida qayd etildi.

### HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASINI O'SISH SUR'ATLARI (foizda) (2020-yil yanvar)




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI (2020-yil yanvar) (hajmi va o'sish sur'atlari)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 29,4 % ga o'sdi va 131,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,2 % ulushiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 863,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 4,7 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,8 % ga teng keldi, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 69,5 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatdagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI (hajmi va o'sish sur'atlari)



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

(2020-yil yanvar)

(hajmi mlrd. so'm)




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda) (2020-yil yanvar)

Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Qo'shrabot (99,5 %), Nurobod (99,4 %), Bulung'ur (99,3 %) va Paxtachi (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (30,6 %), Samarqand tumanida (37,2 %) va Pastdarg'om tumanida (5,1 %) kuzatildi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING  
TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)  
(2020-yil yanvar)**




**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)  
(2020-yil yanvar)**

2020-yil yanvar holatiga chakana savdo tovar aylanmasi 995,0 mlrd. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 7,4 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 994,8 mlrd. so'm nodavlat mulki (99,98 %) hamda 0,2 mlrd. so'm (0,02 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)

2019-yil yanvar




2020-yil yanvar



**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar  
va tumanlarning ulushi, (%)  
(2020-yil yanvar)**

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushini tahlil qilganda Samarkand shahri (32 %), Urgut tumani (11,4 %), Pastdarg'om tumani (7,1 %), Samarkand tumani (6 %) va Bulung'ur (5,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashganligidir. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar  
va tumanlarning ulushi, (%)  
(2020-yil yanvar)**



2020-yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 259,2 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida 2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (604,7 ming so'm), Samarqand shahri (586,9 ming so'm) va Bulung'ur tumani (294,0 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (136,7 ming so'm), Tayloq (140,6 ming so'm) va Kattaqo'rg'on (146,1 ming so'm) tumanlarida qayd etilgi. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(2020-yil yanvar)

Hududlar nomi	Ming so'm	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>259,2</b>	<b>105,2</b>
Samarqand shahri	586,9	108,4
Kattaqo'rg'on shahri	604,7	104,9
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	294,0	103,4
Jomboy	167,8	100,3
Ishtixon	165,5	103,5
Kattaqo'rg'on	146,1	104,2
Narpay	156,8	104,7
Nurobod	236,9	104,3
Oqdaryo	136,7	101,4
Payariq	150,7	103,0
Pastdarg'om	201,9	107,5
Paxtachi	224,0	105,0
Samarqand	239,4	107,8
Urgut	225,5	101,4
Tayloq	140,6	101,5
Qo'shrabot	227,6	103,1

2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 % ni tashkil etib, 26,4 mlrd. so'mga yetdi, yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 9,6 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


**Samarqand viloyatining ulgurji savdo  
tovar aylanmasi  
(2020-yil yanvar\*)**

2020-yil yanvar oyida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 452,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga o'sdi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra 377,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 83,6 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 74,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 68,9 % ni tashkil etdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda  
kichik biznes subyektlarining ulushi, (%)**

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari



**Kichik biznes subyektlari hamda yirik  
korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi  
(2020-yil yanvar)**

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>74233,6</b>	<b>68,9</b>	<b>377 788,5</b>	<b>109,8</b>
Samarqand shahri	56502,4	2,2 m.	171 453,3	106,7
Kattaqo'rg'on shahri	24,4	3,9 m.	8 109,5	109,7
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	13,0	110,1	9 609,6	104,4
Jomboy	6,7	-	7 448,9	109,7
Ishtixon	21,5	92,0	5 603,0	109,8
Kattaqo'rg'on	102,4	2,5 m.	4 382,6	109,6
Narpay	264,7	10,3 m.	2 165,7	109,6
Nurobod	13,7	12,6 m.	897,4	109,6
Oqdaryo	128,7	176,5 m.	22 939,1	109,6
Payariq	2,7	9,6	13 973,4	107,4
Pastdarg'om	15430,8	19,1	19 266,0	2,4 m.
Paxtachi	0,5	29,2	563,6	109,6
Samarqand	1625,0	114,7	28 615,8	107,9
Tayloq	0,0	-	75616,9	104,2
Urgut	46,8	186,2	6829,8	106,7
Qo'shrabot	50,2	9,5 m.	313,9	109,6

\*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 71-230-85-23**  
**66-235-65-80**